

XORIJIY TIL O'RGANISHDA UCHRAYDIGAN NOTO'G'RI YONDASHUVLAR VA ULARNI BARTARAF ETISHNING SAMARALI USULLARI

Sultanxodjayeva Dilshoda

O'zDJTU, "Xorijiy til va adabiyoti 1" ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: Yormatova Aziza Vohidillayevna

O'zDJTU ikkinchi chet tillari kafedrası, o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'rganish jarayonida ko'plab o'quvchi va o'qituvchilar orasida uchraydigan muhim xatolar va ularni bartaraf etishning bir qancha tajribada sinalgan samarali usullari haqida batafsil yoritilgan. Xususan, shaxsiy tajriba va xalqaro metodistlar tomonidan taklif etilgan usullar asosida til o'rganish jarayonida ko'nikma shakllantirishga urg'u beriladi. Grammatikaga asoslanib an'anaviy usul o'rniga chet tilini bola kabi o'rganish va so'z yodlashdagi aksariyat xatolar va ularni samarali usulda yodlash ko'rsatilgan.

Abstract: This article provides a detailed overview of common mistakes encountered by both students and teachers in the process of learning foreign languages, along with several effective, experience-based methods to overcome them. It particularly emphasizes the development of language skills based on personal experience and techniques proposed by international language experts. Instead of the traditional grammar-based approach, it promotes acquiring a foreign language in a child-like manner and presents effective ways to memorize vocabulary and eliminate common errors.

Kalit so'zlar: Xorijiy til o'rganish, ingliz tili, tilni bola kabi o'rganish, samarali usullar, grammatika, so'z yodlash, yondashuv, umumiy xatolar, bilim, ko'nikma, travma, motivatsiya.

Keywords: Learning foreign languages, English language, learning a language like a child, effective methods, grammar, vocabulary memorization, approach, common mistakes, knowledge, skills, trauma, motivation.

Bugungi kunda ta'limga bo'lgan e'tibor davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: *"Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida eng muhim omil bu – bilimli va zamonaviy fikrlaydigan yoshlarimizdir."* Ayniqsa, xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar yoshlarning global dunyoda o'z o'rnini topishi uchun keng yo'l ochmoqda. Mamlakatimizda, hattoki dunyo miqyosida ham yoshlar, shuningdek, kattalar orasida ham xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortib bormoqda. Shu bilan birga, til o'rganayotganlar soni ham jadal sur'atlarda oshmoqda. Xalqimiz orasida

bejizga “Ish bilganga bir tanga, til bilganga ming tanga” degan naql qo‘llanilmaydi. Darhaqiqat, xorijiy tillarni qisqa muddatda mukammal o‘zlashtirib, katta yutuqlarga erishayotganlar talaygina. Biroq til o‘rganayotganlar orasida uzoq vaqt va katta kuch sarflagan bo‘lsa-da, hanuz istagan natijaga erisha olmayotganlar ham yo‘q emas. Xo‘sh, nega ayrim o‘rganuvchilar yillar davomida harakat qilishiga qaramay, hali ham o‘sha tilda bemalol gaplasha olmayapti? Balki bunga sabab, ularning bu jarayonga noto‘g‘ri yondashayotganidadir yoki ular samarali usul va zaruriy vositalardan foydalanmayotgandir. Ehtimol, o‘zlariga mos keladigan o‘rganish uslubini topa olmaganliklari yoki yetarlicha motivatsiyaga ega emasliklari ham bunga ta’sir qilayotgandir. Quyida esa til o‘rganishda samaradorlikka to‘sqinlik qiluvchi omillar va keng tarqalgan xatolar muhokama qilinadi.

Eng avvalo e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan omil — bu o‘quvchining psixologik holatidir. Bunda eng muhim jihat shundaki, o‘quvchi xorijiy tilni nima maqsadda o‘rganayotganini o‘ziga aniq belgilab olishi lozim. Zero, bilim olishda o‘quvchining o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yishi muhim omildir. Agar o‘quvchining maqsadi, ya’ni boradigan manzili aniq bo‘lsa, u holda bu yo‘ldagi qiyinchiliklar yengilroq kechadi va unga motivatsiya ham doimiy hamroh bo‘ladi. Qolaversa, xorijiy tilni ikkinchi til sifatida o‘rganayotgan ko‘plab o‘quvchilar, hattoki ayrim o‘qituvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilayotgan eng katta xatolardan biri — bu tilni faqat grammatik qoidalar va uzundan-uzun so‘zlarni yodlashga asoslanib o‘rganishga urinishdir. Taniqli ingliz metodisti va “Effortless English” (Qiyinchiliksiz ingliz tili) tizimi muallifi A.J.Hoge bu borada dunyo bo‘ylab ko‘plab tajribalar o‘tkazgan. Kuzatuvlari natijasida, an’anaviy til o‘rganish uslublarini tanqid qiladi. Uning fikricha, grammatikani yodlash va so‘z boyligini mexanik tarzda o‘zlashtirish o‘quvchilarda stress, xavotir va hatto “ingliz tili travmasi” kabi salbiy hissiyotlarni keltirib chiqaradi. U, shuningdek, o‘zining Gladys ismli talabasi misolida, an’anaviy usullar bilan yillar davomida ingliz tilini o‘rganishga harakat qilganini, biroq hali ham erkin gaplasha olmasligini ta’kidlaydi.

Bundan tashqari, so‘zlarni an’anaviy usulda tarjimasi bilan yodlash ham ko‘p hollarda og‘zaki yoki yozma nutqda samarali qo‘llanilmaydi. Bu so‘z yodlash usulidagi katta kamchiliklardan biri so‘zning asl talaffuzini qanday ishlatilishiga e’tibor qilmay yodlashdir. Afsuski, ko‘pchilik o‘quvchilar ongida noto‘g‘ri tushuncha shakllangan: ular haftasiga atigi uch marta, har biri bir-ikki soatdan iborat darslarda qatnashish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin deb hisoblaydilar. Aslida esa, bu darslardan tashqari, muntazam va mustaqil mashg‘ulotlarsiz til o‘rganishda sezilarli yutuqlarga erishish mushkul. O‘quvchilar aynan mustaqil o‘rganish jarayonining ahamiyatini to‘g‘ri anglab yetishlari lozim.

Bularga qo‘shimcha ravishda, doimiy ravishda xato qilishdan qo‘rqish va natijada gapirishdan to‘xtash, asta-sekin o‘quvchida til o‘rganishga nisbatan salbiy munosabat shakllanishiga, hatto tilni yomon ko‘rishga olib kelishi

mumkin. Bu esa, albatta, o'quvchining motivatsiyasining pasayishiga sabab bo'ladi. Bu fikrni "Learnship" blogida Ruairi Braddell ham tasdiqlaydi. U o'z maqolasida xatolardan qo'rqish muloqotdagi ishtirokni kamaytirishini va o'rganish jarayonini sekinlashtirishini ta'kidlaydi. (*Manba: Braddell, R. (2022). Why we should stop worrying about making mistakes when speaking a new language. Learnship Blog.*)

Xo'sh, asosiy muammolarni ko'rib chiqdik. Endi esa ushbu muammolarni bartaraf etishda qanday usullar samarali bo'lishi mumkin, degan savol tug'iladi. Shu paytgacha ko'plab metodistlar tomonidan eng samarali deb topilgan yondashuvlardan biri — tilni bolalardek o'rganish metodidir.

Bu usulga ko'ra, til o'rganish jarayoni sun'iy grammatik qoidalar asosida emas, balki tabiiy, real hayotiy muloqot muhitida amalga oshirilishi kerak. Xuddi ona tilini qanday o'rganayotgan bola kabi: u avvalo eshitadi, tushunadi, keyin esa asta-sekin gapira boshlaydi. Bu usulda grammatikani to'g'ridan-to'g'ri o'rgatish emas, balki uni tabiiy muloqot davomida o'zlashtirish maqsad qilinadi.

Shuningdek, bu yondashuvda xatolardan qo'rqmaslik, ko'p eshitish, ko'p gapirish va muloqotda faol bo'lish muhim sanaladi. Til o'rganish shunchaki dars emas, balki kundalik hayotning bir qismiga aylanishi kerak. Shu tariqa, til asta-sekin ong ostiga singib, o'rganuvchi tilni tahlil qilmasdan, avtomatik ravishda uni qo'llay boshlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, til o'rganish jarayonida o'z tajribam asosida bir muhim haqiqatga guvoh bo'ldim: haddan tashqari grammatikaga urg'u berish va so'zlarni to'g'ridan to'g'ri tarjima qilishga asoslangan yondashuv ko'plab hollarda o'rganish jarayonini sekinlashtiradi. Ingliz tilini qariyb 7–8 yil davomida o'rganib kelgan bo'lsam-da, ushbu noto'g'ri yondashuvlar mening erkin va avtomatik tarzda muloqot qilishimga jiddiy to'sqinlik qilgan. Vaqt o'tishi bilan bu holat motivatsiyaning pasayishiga, hatto "hech qachon tabiiy gapira olmasam kerak" degan salbiy fikrlarning shakllanishiga olib keldi.

Biroq izlanishlar va metodik tahlillar orqali ba'zi xatolarni bartaraf etish natijasida, atigi bir oy ichida nutqimda sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishdim. Ushbu jarayonni chuqur tahlil qilganimda, pedagog K.D. Ushinskiy ta'kidlagan "Takrorlash – bilim onasidir" degan fikrni til o'rganish jarayonida "Eshitish – tilning onasi" shaklida kengaytirish mumkin, degan xulosaga keldim.

So'z yodlash bo'yicha esa metodistlar fikri turlicha. Hozirgi kunda keng tarqalgan va samarali usullardan biri – mnemonik yondashuv bo'lib, bu usul so'zlarni ona tilidagi tasvirlar yoki rasmiy vizual obrazlar bilan bog'lab o'rganishga asoslanadi. Mnemonika – bu "eslab qolish san'ati" bo'lib, tasavvurga asoslangan yodlash orqali xotirani kuchaytiradi. Loki va G-garmonizatsiya kabi metodlar o'quvchilarda kreativ eslab qolish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi (Muzrapova, 2024).

Biroq amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday usullar asosan so'zlarni eslab qolish uchun samaralidir. Agar ular amaliyotda muntazam qo'llanilmasa, vaqt o'tishi bilan esdan chiqishi tabiiydir. Hatto eslab qolingani taqdirda ham,

ularni ogʻzaki nutqda toʻgʻri va avtomatik tarzda qoʻllashda muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Buning oʻrniga, koʻplab tajribalarda samaradorligi isbotlangan va A.J. Hoge tomonidan targʻib qilingan yondashuv — bu yakka soʻzlarni emas, balki jummalarni, hatto butun gaplarni yodlash usulidir. Misol uchun, ingliz tilidagi “terror” soʻzini oddiy tarjimada “qoʻrquv” deb oʻrganish oʻrniga, uni jumla tarkibida, masalan: “I feel a sense of terror” yoki qisqartirilgan shaklda “a sense of terror” deb yodlab qolish nutq jarayonida ularni toʻgʻridan toʻgʻri ishlatishni ancha osonlashtiradi.

Shuningdek, oʻz tajribam asosida samarali deb topgan yondashuvlardan biri — bu soʻz yodlashda gaplarni individuallashtirish, yaʼni oʻquvchi tomonidan oʻziga moslab, zamon, feʼl yoki aniqlovchilarni oʻzgartirish orqali qayta ishlatishdir. Masalan, bir gap asosida turli variantlar yaratish (zamonlar, zamirlar yoki feʼllarni almashtirish orqali) oʻquvchiga ularni yengilroq va tabiiyroq tarzda oʻzlashtirish imkonini beradi.

Xulosa shuki, chet tilini oʻrganish — bu oddiy bilim yodlash jarayoni emas, balki muntazam mashq va amaliy koʻnikma shakllantirishdir. Til — bu aloqa vositasi, boshqa millatlar madaniyatini anglash, tushunish kalitidir. Har bir inson tugʻilgandan boshlab oʻz ona tilini oʻrgana olgan boʻlsa, demak, xuddi shuningdek, boshqa tillarni ham oʻzlashtira oladi. Buning uchun esa eng avvalo toʻgʻri yondashuv, sabr, izchil mehnat va chin dildan istak zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). *Yangi Oʻzbekiston strategiyasi*. Toshkent: Oʻzbekiston nashriyoti.
2. Hoge, A. J. (2014). *Effortless English: Learn to Speak English Like a Native*. CreateSpace Independent Publishing Platform.
3. Muzrapova, D. S. (2024). Xorijiy tillarni oʻqitishda yangicha yondashuvlar. In *Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida* (7-sonli respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi materiallari, b. 157–159). Qarshi: Qarshi ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi.
4. Braddell, R. (2022). Why you shouldn't be afraid to make mistakes when speaking a new language. *Learnship Blog*. <https://learnship.com/common-language-learning-mistakes>